



O'SMIR XULQ-ATVORIDA YUZAGA KELUVCHI AGRESSIV

HOLATLARNING OLDINI OLISH

Nabijonova Surayyo O'ktamjon qizi

Pop tumani MMTB ga qarashli

36-maktab amaliyotchi psixlogi

Annotatsiya: Inson faolligini o'ziga xosligi shundaki, u muttasil boshqa odamlar yoki o'zi yaratgan narsalar bilan o'zaro munosabatda kechishidadir. Ular o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi tabiiy qonunlardan tashqari ijtimoiy hayotning gohida munosabatlar variativligini muayyan darajada belgilab turuvchi axloqiy normalarning qat'iy qoidalar shaklidagi qonunlari kuchga kiradi.

Pirovardida insonlararo o'zaro munosabatlarni idora qiluvchi bir-birining xatti-harakatini va xulqini, shuningdek boshqa insonlarga qaratilgan xususiy harakatlarni baholash tizimi ishga tushadi. Insonlar tomonidan belgilanadigan munosabatlarni aks ettiruvchi mazkur baholarning nisbiyligi asosiy falsafiy va axloqiy masaladir. Kimningdir nuqtai-nazariga ko'ra zaruriyatday tuyuladigan narsa boshqa bir inson uchun nafaqat befoyda, balki zararli deb hisoblanishi mumkin, bir madaniyatda ma'qul sanalgan narsa boshqa bir madaniyatda noma'quldek e'tirof etilishi mumkin. haxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristkalaridan biri agressivlikdir. Psixologiyada "agressiya" tushunchasi turlicha yondashuv asosida tahlil qilingan bo'lib, bir guruh tadqiqotchilar agressiyani negativ xulq-atvor modeli sifatida baholasalar, yana bir guruh



tadqiqotchilar bu xulq-atvorning pozitiv tomonlari ham mavjudligini ta'kidlaydilar. Agressiyaning xilma-xil ta'riflari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir. Boshqalarga xavf soluvchi yoki ziyon yetkazuvchi har qanday xulq-atvor agressiya deb ataladi. (Bass). Boshqalarni hafa qilish, ularga ziyon yetkazish niyati bo'lgan xatti-harakatlar agressiya deb ataladi. (Berkovitts). Boshqalarga jismoniy zarar yetkazish niyati bilan amalga oshirilgan harakatlar agressiya deb ataladi. (Zil'mann). Boshqa tirik mavjudotlarga ziyon yetkazishga qaratilgan, biroq o'ziga nisbatan qo'llanilishga qarshi bo'lgan har qanday xulq-atvor agressiya deb ataladi. (R.Beron, D. Richardson). Agressiv xulq-atvorni aniqlashda ushbu ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Agressiyaning quyidagi qisqacha klassifikatsiyasi mavjud: 1) agressiyaning dardmandlik darajasidagi alomatlari (tutaqib ketish, jahl kelganda o'zini yo'qotib qo'yish); 2) agressiyaning jismoniy, og'zaki va boshqa, butun jamiyat uchun nomaqbul sanalgan axloq qonun-qoidalarini bilan bog'lik shakllari (odatda, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksli ijtimoiy xulq-atvor normalarining mustahkamlanishi bilan bog'lik bo'ladi); 3) jamiyatda qabul qilingan axloq qonun-qoidalarini yetarlicha o'zlashtirilmaganligi yoki xatti-harakatlarini idora qilish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni to'liq shakllanmaganligi bilan bog'lik agressiyaning turli ko'rinishlari (ta'lim - tarbiya ko'rmaganlik); 4) ayrim kuzatuvchilar tomonidan agressiv (xaq-huquqlarini poymol qilish, birovga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan) boshqa bir kuzatuvchilar tomonidan qat'iylik, faollik sifatida talqin qilinadigan barcha xatti-harakatlar. Yuqorida keltirilgan agressiya klassifikatsiyasi Bass prologiyasida ham o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin. Biz bu zo'ravonliklarning barchasini destruktiv, jismoniy agressiya yoki atayin boshqa birovga yo ob'ektga zarar yetkazish maqsadida amalga oshirilgan harakat deb ta'riflasak bo'ladi. Agressiv xulq-atvor: uzoq davom etuvchi yoki qisqa muddatli, juda tez sodir etiluvchi yoki o'zini boshqara oladigan darajalarda farqlanishi kuzatiladi. Rolf Leber va Magda Shtutxamer Leberlarning ta'kidlashicha, agressivlik ochiq va yashirin holatlarda bo'lib, bu ikki agressiya o'z navbatida quyidagi turlarga ajratib o'rganiladi: 1. Pattern xulq-atvor. 2. Emotsiyalar. 3. Kognitiv jarayon. 4.



Rivojlanish. Ochiq agressiv xulq-atvorda jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri ochiq hujum qilinishi, jismoniy zarba orqali zarar yetkazish kuzatiladi. Yashirin agressiya esa gapso'zlar, mish-mishlar, aldov va yolg'onlar asosida ifodalanadi. Ko'p hollarda ochiq agressiya yosh o'tishi bilan kuchsizlanib borsa, yashirin agressiya esa aksincha kuchayib boradi. Ma'lumotlarga ko'ra agar inson bolaligida ochiq agressiyani tez-tez kuchli namoyon etgan bo'lsa, u yoshi ulg'ayganda ham zo'ravonlik qilishi, jinoyatlarga qo'l urishi mumkin ekan. Ochiq agressiya asosan emotsional holatlar jumladan, g'azab, qahr, jahl, his-hayajon bilan xarakterlanadi. Yashirin agressiyada kishi holati neytral bo'lib, his-tuyg'ularsiz ifodalanadi. Kognitiv jarayonda ham ochiq va yashirin agressiyada bir biridan farqlanadi. Ochiq agressiv xulq-atvorli, zo'ravonlikka moyil bo'lgan insonlarda "kognitiv defitsitarnost" ya'ni oldin o'ylab keyin qaror chiqarish qobiliyati mavjud bo'lmaydi. Shu bois ular chuqur o'ylab o'tirmay "agressiv" harakat asosida vaziyatni hal etadilar. O'smirlik davrida bolani anglashi va o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi va unda boshqa odamlar, olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi, o'yin faoliyati asta-sekin. kamayib, yangi faoliyatlar yuzaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik davrida o'z faoliyatini nazorat etish rivojlana boshlaydi va o'zini o'zi boshqarishga intilishi kuchayadi. Bir so'z bilan aytganda, o'smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri hisoblanadi. G'azab, qo'rquv va shu kabi boshqa yemotsiyalar insonni o'rab turgan muhitga moslashish funksiyalarini bajaradi. G'azab odamlarda ham, hayvonlarda kabi to'siqlarni yo'qotishga, maqsadga yerishishdagi, dam olishdagi yoqimli taassurotlarni olishdagi va boshqa to'siqlarni yengishga yo'naltirilgan. Shuning uchun har qanday agressiyani ko'rsatish qonunbuzarlik hisoblanmaydi. G'azab - ma'lum bir holatdagi reaktsiya va u odam uchun xatarli holatda kerak bo'ladi. Agar g'azab "kuchayib" borsa, unda u sharoitdan ustunroq bo'ladi, doimiy xavotirlanish bilan olib borilib, u normal hisoblana olmaydi. Normadagi stressorning uzoq muddatli ta'siri unga moslashishga olib keladi, bunda agressivlik, yuqori hayajon, qo'rquv va nevrotik simptomlarni kelib chiqishi o'zini boshqarish tizimining "buzilishi" hisoblanadi. B.Spok fikricha, bir yoshli bolaning onasiga



go'dakka nisbatan yoqimsiz harakat qilgani uchun tipirchilashi yoki tushirib qoldirishi, ikki yoshli bolaning boshqa bolani urishi, uning qum o'ynayotgandan o'yinchog'ini tortib olgani uchun kurakchasi bilan boshiga tushirib qolishi oddiy hol hisoblanadi. Barcha g'azabning reaksiyalari holatli (ya'ni sharoitga qarab) va adekvatli, lekin ularbuzilishiga "o'tib ketishi mumkin". Har qanday buzilish o'zining boshlanishini aniq bir ko'rinish (situatsiya) dan oladi. Buzilishda g'azab ta'sirining «o'sib borish» sharoitlari quyidagilardan iborat: - ota-onalarning doimiy agressiv hatti-harakatlari, bolaga salbiy ta'sir qiladi, ularni qaytarib ularning agressivliklarga „kasallanib“ qoladi (o'rganib qoladi). Bu degani bolaning o'zini emotsional boshqarish sistemasi uning ota-onalari emotsional boshqarish tipida ko'riladi; - bolani yaxshi ko'rmaslik ko'rinishi uyda himoyachining yo'qligi, xatar va atrofdagi olamni dushmanligi kabi sezgilar shakllanadi; - uzoq muddatli va tez-tez bo'lib turadigan frustatsiyalar, bunda ularning asosi bo'lib ota-onalar va qandaydir muhitlar sabab bo'ladi; ota-onalar tomonidan bolani kamsitish, haqorat qilish. Bu frustratsiyaning alohida bir ko'rinishi, bu bola shaxsini shakllantirishda juda muhim hisoblanadi, hatto diagnostika va korreksiya jarayonida alohida ko'rib chiqish zarur. Hozirda insonlarda kuzatilayotgan agressiv xatti-harakatlarning namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulqatvorning oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatdagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi talabiga aylanmoqda. Shuni aytib o'tish mumkinki, agressiya o'zining kelib chiqishi dinamikasi bo'yicha ko'pincha bolani yaqin atrofdagilari bilan bo'lgan o'zaro Bolada agressiyani to'g'rilash, ya'ni korreksiya qilish, uning sabablarini, kelib chiqishini bilishdan boshlash kerak. Agar agressiya emotsional-motivatsion sohada buzilish signali bo'lib hisoblanmasa, unda korreksion harakatlar uni (agressiyani) yo'qotishga qaratilgan bo'lmay, balki uni yumshatishga va boladagi agressiv xulq-atvordan kelib chiqadigan yomon asoratlarni oldini olishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari bu holatda ota-onalarni bolaning agressiv reaksiyalarini adekvat ravishda qabul qilishga tayyorlash kerak. Boshqa holatlarda, agar agressiya shaxsning emotsional-motivatsion sohasining buzilishida



ko'rinsa, psixolog yoki tarbiyachilarning harakati bolaning agressiv harakatini mustahkamlanmasligiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Korrektсион metodlarni qo'llash sabablari xarakteriga bog'liq bo'ladi. O'smirlikda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunday davrlar bo'ladiki, ularda agressiv fe'l-atvor eng yuqori yoki eng past ko'rsatkichlarda bo'ladi. O'g'il bolalarda ikki tipdagi agressiyaning namoyon bo'lishi 12 yosh va 14–15 yoshlarda va qiz bolalarda ham ikki tipdagi agressiv xulqatvorning eng yuqori ko'rsatkichlari 11 va 13 yoshlarga to'g'ri keladi. Qiz va o'g'il bola- lardagi agressiv xulq-atvor ko'rinishlarining namoyon bo'lish darajasi solishtirilganimizda, o'g'il bolalarda to'g'ri jismoniy va to'g'ri verbal agressiyaga, qizlarda esa to'g'ri verbal va bevosita verbal agressiyaga moyillik ko'rishmiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev I.K. Turmush tarzi va inson salomatligi. –T.: 2006.
2. Arziqulov R.U. Sog_lom turmush tarzi asoslari. – T.: 2005.
3. Egamberdieva N. Mahallaning oila va ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlashdagi o'rni va roli //—Yoshlarni oilaparvar, ota-onalikka tayyorlashda oilaning rolil mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T, 2013.
4. Musurmonova O. Oilada sog'lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lim muassasalari hamkorligining ustuvor yo'nalishlari //—Yoshlarni oilaparvar, otaonalikka tayyorlashda oilaning rolil mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2013. – B.217.
5. Nuraliyeva N.B. Oila, mahalla va jamoatchilikning birgalikdagi tarbiyaviy ishlari // Maktab va hayot. – 2006. -